

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK MOSLIKLARNI TANLASH TAMOYILLARI

T. Mukaramxodjayeva¹

Annotatsiya:

Maqolada ingliz va o'zbek frazeologik birliklari orasidagi ekvivalentlik hodisasi o'rganilib, misollar yordamida tasvirlangan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, idioma, ekvivalentlik, semantik mutanosiblik, denotative ma'no.

doi: <https://doi.org/10.2024/eb82sy27>

Frazeologik birliklar tilda tayyor holda saqlanadigan, ko'chma ma'noga asoslangan, o'ziga xos uslubiy bo'yoqdorlikka ega til birliklari bo'lib, ularni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish o'ziga xos shartlar asosida amalga oshiriladi. Zamonaviy lingvistik adabiyotlarda ushbu mutanosiblik "ekvivalentlik" atamasi bilan ifodalanib, ushbu keng tarqalgan tushuncha turlicha talqinlanadi. Ya'ni turli lingvistik terminlar, xususan: "ekvivalent", "muvofiglik", "o'ziga xoslik", shuningdek, "sinonim", "adekvat", "analog", "tenglik" kabi atamalar ushbu ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. O.S.Axmanova o'zining "Lingvistik atamalar" lug'atida ekvivalentlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "ekvivalent – bu ma'lum bir nutq birligining boshqa nutq birligi bilan bir xil funksiyani bajarishidir". Ekvivalentlikning bunday keng talqin qilinishi frazeologik birliklarni tillararo qiyoslashda ushbu birlikning mazmunidan kelib chiqqan mutanosiblik (semantic) yoxud morfosintaktik-leksik mutanosiblik asosida aniqlangan bo'ladi. Ammo frazeologik birliklarni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish, ushbu birliklarning atash (denotativ) ma'nosiga asoslanadi hamda bu "frazeologizmlarni amaliy maqsad bilan tillararo qarama-qarshi (kontrastiv) qo'yishning ajralmas sharti" hisoblanadi. Masalan To talk through the back of (one's) neck- iborasi o'zbek tildagi "aravani quruq olib chopmoq", Better late than never- hechdan ko'ra kech, on cloud nine- yettinchi osmonda iboralari o'zaro ekvivalent bo'lyapti desak, maqollar tarjimasida ham ikki til orasidagi semantik mutanosiblikka alohida e'tibor qaratish joizdir: Idleness is the root of all evil- Bekochidan xudo bezor, Don't bite off more than you can chew- Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma, Live and learn- Beshikdan qabrgacha ilm izla va boshqalar.

Ekvivalentlikni "ma'lum bir jihatdan obyektlar tengligi" sifatida belgilash atamalarini ishlatishdagi noaniqliklardan qochishga yordam beradi hamda ekvivalentlikning quyidagi bir nechta turlarini aniqlash imkonini beradi: tarjima ekvivalentligi, funksional ekvivalentlik, pragmatik ekvivalentlik, kognitiv ekvivalentlik va boshqalar. Ammo til elementlari denotativ ma'no bilan birga uslubiy bo'yoqdorlikka ham ega. Ular o'ziga xos „ekspressiv atmosfera“ bilan o'ralgan bo'ladi. Frazeologik mutanosiblik aniqlanayotganda mutloq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va o'rnini bosuvchi ekvivalentlik turlari tillararo mutanosiblik hamda farqlarni tavsiflash uchun o'rinli ekanligi isbotlangan. A.Yaxshiyevga ko'ra, to'liq muqobillik ekvivalentlikning ideal holati sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. To'liq ekvivalentda frazeologizmlar barcha muhim ekvivalentlik parametrlarida bir-biriga mos kelishi kerak,

¹ *Taxmina Yunusovna Mukaramxodjayeva, SamDCHTI, Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Ingliz tili o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi*

ya'ni bir xil denotativ va konnotativ, emotsional-ekspressiv va stilistik umumiy ma'no, shuningdek komponentlar zanjiridagi to'liq bog'lanish va muvofiqlik qarama-qarshi birliklar o'rtasida bo'lishi kerak. Barcha taqqoslash parametrlarida ikkita frazeologik birlikning mos kelishi ingliz va o'zbek tillarida juda keng tarqalgan holat emas. Bushuy ham bu turdagi ekvivalentlik frazeologizmlarning aksariyati to'liq ekvivalent holatlariga nisbatan "o'xshash madaniy zaminga asoslangan" frazeologik internatsionalizmlar ekanligini ta'kidlaydi. U frazeologizmlar ko'pincha hayvon nomlari, inson tana a'zolari, narsa-predmet nomlari va o'simlik nomlari qo'llanilgan, qadimgi adabiyot va xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqanligini yoki ba'zi frazeologik ekvivalentlar o'zlashma bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan.

Masalan: Chickens are counted in autumn-Jo'jani kuzda sanaymiz, As hungry as a wolf -Bo'riday och, on tip of my tongue- tilimni uchida turibdi kabi iboralar tarjimasi har ikki tildagi bir xil so'zlarni o'zaro semantic bog'lash hamda ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, It takes two tango-Qarsak ikki qo'ldan chiqadi(ya'ni ma'lum bir ish uchun har ikki tomon ham javobgar mazmunida), When it rains, it pours-o'lganni ustiga tepgandek bo'ldi kabi misollarda to'liq ekvivalentlik kuzatilgan deb aytolmaymiz.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki frazeologik birliklar orasidagi mutanosiblikni 3 turga bo'lishimiz mumkin:

1. Mutloq ekvivalentlik
2. Qisman ekvivalentlik
3. Nolga teng ekvivalentlik

To'liq ekvivalentlik deb ikkala tildagi idiomalarning bir xil ma'no va mazmunda foydalanishiga aytilib, bu kamdan-kam uchraydigan holat hisoblanadi. Masalan:First think then speak-Avval o'yla keyi so'yla; Milk cow-Sog'in sigir;

Qisman ekvivalentlik esa har ikkala tildagi o'xshash ma'noga ega, lekin o'ziga xos so'zlar yoki tuzilmalari farq qiladigan birliklar hisoblanadi. Masalan:A black hen lays a white egg-qora sigir oq sut berar; be over the moon- boshi osmonga yetdi.

Nolga teng bo'lgan ekvivalentlik boshqa tilda ma'noni izohlash yoki tushuntirishni talab qiladigan to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini izohlab beradiga frazemaning mavjud emasligini ko'rsatib beradi. Masalan: to kick the bucket-Vafot etmoq, burn bridges- munosabatlarni yakunlamoq va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ikki yoki undan ortiq tillarning tillararo frazeologik birligini o'rganishda, eng avvalo, tillararo frazeologik ekvivalentlar orasidan o'zaro bog'liqlik darajasi yuqori bo'lgan birliklarni, ya'ni tillararo frazeologik mosliklarni aniqlash zarur. Tillararo frazeologik mosliklarni tanlash manbalarining asosiy turlari bu ixtisoslashtirilgan lug'atlar va ma'lumotnomalar, badiiy hamda publisistik asarlar hamda jonli suhbat nutqi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Сафаров Ш. О дискурсивно-прагматической природе директивных речевых актов // Текст: структура и анализ. – М., 1989. – С. 142-146.

[2]. Яхшиев А.А. Синтактико-текстовая экспрессия как лингвистическая категория (на материале немецкого языка). Филология масалалари. -Тошкент: УзДЖТУ, 2009, №3. – С.54-58.

[3]. Романова Л.Г. Адекватность и эквивалентность как переводческие категории: теоретико-экспериментальное исследование. Дисс. на соискание учен. степени докт. филол. наук. Челябинск: 2011. 260с

[4]. Бушуй А.М. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. –144 с.

[5]. Nasrullaeva, N. Z. (2018). *English-Russian-Uzbek dictionary of genderly marked phraseological units*. Toshkent: Navruz.

[6]. Mukaramxodjayeva T.Y “Semantic relationships of phraseological units in English: polysemy and homonymy” *Soʻz sanʼati xalqaro jurnali*, 7 jild 2 son, volume 11, Toshkent, 2024

[7]. Mukaramxodjayeva T.Y “Interactive methods of teaching language” *Международный научный журнал № 8(100), часть 3 «Научный импульс» Март, 2023* 8.